

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**“SHARQ MUMTOZ POETIKASI
MUAMMOLARI:
NAVOIY VA RUMIY”**

*mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari
2025-yil, 22-aprel*

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ALISHER NAVAI TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND
COMPARATIVE LITERATURE

*Proceedings of the international
scientific-theoretical conference titled*

**“ISSUES IN ORIENTAL CLASSICAL
POETICS: NAVO'I AND RUMI”**

April 22, 2025

Toshkent
“Nurafshon business”
2025

UO'K 845.711.05

KBK 133.585.3

“Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: Nurafshon business, 2025. – 1016 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,

filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Shuhrat Sirojiddinov (O‘zbekiston), Münevver Tekcan (Turkiya), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Agnieska Vojta (Germaniya), Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Suvon Meli (O‘zbekiston), Sergey Nikonorov (Rossiya), Akibatxan Ismanova (Qirg‘iziston), Makpal Orazbek (Qozog‘iston), Aleksey Pilev (Rossiya), Nurboy Jabborov (O‘zbekiston), Shafiqa Yorqin (Afg‘oniston), Amir Ne‘mati Lima‘i (Eron), Nafas Shodmonov (O‘zbekiston), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston).

Sharq-islom madaniyatining ikki buyuk vakili – Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiy ijodi badiiyati, tarixiy-tipologik xossalarini ilmiy-nazariy tadqiq etishga qaratilgan “Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy” mavzuidagi mazkur konferensiya materiallari ulkan geografik ko‘lami, tipologik talqinlari, tahliliy xulosalari bilan o‘ziga xosdir. To‘plam to‘rt bo‘limdan tashkil topgan. Har bir bo‘lim o‘zicha mustaqil ilmiy muammoni aks ettirishi bilan birga, Navoiy va Rumiy poetikasi sathida o‘zaro umumlashadi, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarixiy hamda nazariy poetika, hozirgi adabiy jarayon muammolarini aks ettirishi bilan ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy to‘plam adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyot tarixi, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik bilan shug‘ullanayotgan doktorant, tayanch doktorantlar; magistrant va bakalavriyat bosqichi talabalari, shuningdek, badiiy adabiyot masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 3-apreldagi yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**Mualliflar qarashlari tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.**

© “Nurafshon business”, 2025.

UDC 845.711.05

KBK 133.585.3

Proceedings of the International Scientific-Theoretical Conference on the topic "Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi" – Tashkent: Nurafshon Business, 2025. – 1016 pages.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov,

Doctor of Philological Sciences, Academician

Editorial Board:

Shuhrat Sirojiddinov (Uzbekistan), Münevver Tekcan (Turkiye), Uzoq Jo'raqulov (Uzbekistan), Agnieszka Wojta (Germany), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Rukhsana Iftikhar (Pakistan), Almaz Ulviy (Azerbaijan), Suvon Meli (Uzbekistan), Sergey Nikonorov (Russia), Akibatkhon Ismanova (Kyrgyzstan), Makpal Orazbek (Kazakhstan), Aleksey Pilev (Russia), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Shafiqa Yorqin (Afghanistan), Amir Ne'mati Lima'i (Iran), Nafas Shodmonov (Uzbekistan), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Qur'onov (Uzbekistan), Gulnoz Khalilueva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan).

The present conference proceedings, titled "Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi" focus on the scholarly and theoretical exploration of the artistic, historical, and typological dimensions of the works of two eminent figures of Eastern-Islamic culture – Alisher Navoi and Jalaluddin Rumi. With its broad geographical scope, comparative perspectives, and analytical insights, the collection offers a unique contribution to the field. The volume is organized into four sections. Each section explores a distinct scholarly issue while also highlighting the shared poetic features and mutual influences in the works of Navoi and Rumi. The discussions extend to themes in world literature, comparative literary studies, historical and theoretical poetics, and contemporary literary discourse, contributing to both intellectual and aesthetic understanding.

This collection is intended for doctoral and postgraduate researchers, as well as master's and undergraduate students in fields such as world literature, literary theory, literary criticism, comparative literature, translation theory, and translation studies. It may also be of interest to anyone engaged in the study of artistic literature.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on April 3, 2025.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

© "Nurafshon business", 2025.

MUNDARIJA

1.	<i>Shuhrat SIROJIDDINOV.</i> IKKI BUYUK – IKKI TURK (<i>Kirishso'z ornida</i>)	15
I SHO'BA NAVOIY VA RUMIY: BADIIYAT VA TIPOLOGIYA		
2.	<i>Узоқ ЖЎРАҚУЛОВ.</i> МУМТОЗ ПОЭТИКАДА “ИДЕАЛ ОБРАЗ” МУАММОСИ	20
3.	<i>Қозоқбой ЙЎЛДОШ.</i> “ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН” ДОСТОНИДА РУҲИЯТ ТАСВИРИ	48
4.	<i>Сувон МЕЛИ.</i> “ХАМСА”ДА МУАЛЛИФ “МЕН”И	57
5.	<i>Gulnar Agig JAFARZADE.</i> THE INFLUENCE OF RUMI ON ALISHER NAVA'I'S PERSIAN RUBAIYAT	68
6.	<i>Münevver TEKCAN.</i> ALI SHIR NAVA'I'S IMPACT ON THE TIMURID RENAISSANCE	79
7.	<i>Сергей НИКАНОРОВ.</i> К ВОПРОСУ О ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ ЭПИТЕТОВ В СБОРНИКЕ “СОКРОВИЩНИЦА МЫСЛЕЙ” АЛИШЕРА НАВОИ	90
8.	<i>Мақсуд АСАДОВ.</i> НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИЖОД ВА ИЖОД АҲЛИ ТАЛҚИНИ	99
9.	<i>Шоира АҲМЕДОВА.</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ МАКТУБЛАРИ ҲАҚИДА	107
10.	<i>Гулноз ХАЛЛИЕВА, А. ЮСУПОВА.</i> ЕВРОПАДА РУМИЙШУНОСЛИК ВА СУЛТОН ВАЛАДНИНГ БУЮК БРИТАНИЯДА САҚЛАНАЁТГАН АСАРЛАРИ ХУСУСИДА	116

11.	<i>Оразбек МАҚПАЛ, Айнұр АНАПИНА.</i> ӘДЕБИЕТТЕГІ ИНТЕРМӘТІНДІЛІК: АБАЙ ШЫҒАРМАЛАРЫНЫҢ ӘЛІШЕР НАУАИМЕН САБАҚТАСТЫҒЫ	121
12.	<i>Сайфиддин РАФИДДИНОВ.</i> НАВОИЙ ВА РУМИЙ ИЖОДИНИНГ ҚИЁСИЙ ЎРГАНИШ МАММОЛАРИ	128
13.	<i>Dilnavoz YUSUPOVA.</i> MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SAMARQAND TALQINI	137
14.	<i>Илҳом ҒАНИЕВ.</i> ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ ВА АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК	146
15.	<i>Islamjon YAKUBOV.</i> JALOLIDDIN RUMIY MEROSI VA ZAMONAVIY O'ZBEK ROMANCHILIGI	153
16.	<i>Gulbahor ASHUROVA.</i> TARIXIY SHAXS TASVIRI: NAVOIY OBRAZI	162
17.	<i>Qahramon TO'XSANOV, Muhammadamin JURAQULOV.</i> RUMIY VA NAVOIY IJODIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI	170
18.	<i>Mahmadiyor ASADOV.</i> HOMO POETIKUS KONSEPSIYASI: NAVOIY VA RUMIY	174
19.	<i>Sobit AVEZOV.</i> BOQIYLIKKA DAXLDOR BITIKLAR	182
20.	<i>Адҳамбек АЛИМБЕКОВ.</i> АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ ТУРКИЯЛИК ШОГИРДИ	187
21.	<i>Насиба БОЗОРОВА.</i> ҲАЗРАТИ МАВЛОНОНИНГ “МАЖОЛИСИ САБЪА” (“ЕТТИ МАЖЛИС”) АСАРИДА НАЪТ	191
22.	<i>Yulduz ZIYAYEVA.</i> “OSHIQ-MA'SHUQA-RAQIB” OBRAZI GENEZISI	198
23.	<i>Olmos XURRAMOV.</i> ALISHER NAVOIYNING “HOLOTI PAHLAVON MUHAMMAD”DA TARIXIY HAQIQAT IFODASI	205
24.	<i>Hasamuddin HAMDARD.</i> AMIR ALISHER NAVOIYNING HEROT MAKTABINING TUSHUNCHALARINI TEMURIYLAR SIYOSATIGA O'TKAZISHDAGI ROLI	210

25.	<i>Leyla HƏSƏNOVA.</i> AZƏRBAYCAN ƏDƏBİYYATINDA ROMANTİZM	220
26.	<i>Marifat RAJABOVA, Madina IBOTOVA.</i> RUMİY VA NAVOIY LIRIKASIDA KO'NGIL METAFORASI	226
27.	<i>Sherxon QORAYEV.</i> MAVLAVIY "GIRDI DARVESHLAR"NING RAQSU SAMO' MAJLISLARI	231

II SHO'BA
SHARQ ADABIYOTIDA POETIKA
MUAMMOLARI

28.	<i>Улуғбек ҲАМДАМ.</i> ГЛОБАЛ ДУНЁДАГИ ЙЎЛЧИ ЮЛДУЗЛАР	244
29.	<i>Zafer TOPAK.</i> ALİ ŞİR NEVÂÎ'NİN TÜRKÇE DİVANLARINDAKİ ŞİİRLE İLGİLİ BENZETMELER VE BUNLARIN ŞAİRİN POETİKASINA KATKILARI	254
30.	<i>Gulnoz XALLIYEVA, Adiba MA'DIYEVA.</i> ZAMONAVIY O'ZBEK VA NEMIS SHE'RIYATIDA BAHOR OBRAZINING BADIY TALQINI	266
31.	<i>Dilrabo QUVVATOVA.</i> MUMTOZ POETIKADA MASNAVIYGA OID QARASHLAR TALQINI	275
32.	<i>Вусала НАСИБОВА.</i> КОМПЛЕКС НОВРУЗОВСКИХ ОБРЯДОВ В АЗЕРБАЙДЖАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ	279
33.	<i>Диляра ХАЛИЛОВА.</i> К ВОПРОСУ О МЕЖКУЛЬТУРНОМ ПОТЕНЦИАЛЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ НАВОИ И ПУШКИНА В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА	285
34.	<i>Оразбек МАҚПАЛ, Әнуар ЗЕРДЕ.</i> НҲРЛАН МӘУКЕНҰЛЫ ШЫҒАРМАШЫЛЫҒЫ ЖӘНЕ АБАЙ ДӘСТҮРІ	289
35.	<i>Олим ОЛТИНБЕК.</i> РАУФ ПАРФИ ШЕЪРЛАРИНИНГ ВАЗН ХУСУСИЯТЛАРИ	297
36.	<i>Farhad RAHİMİ.</i> FERAĞI'NİN MİFTAHU'L-LÜGAT SÖZLÜĞÜNÜN DÜZENİ VE EL YAZMASI ÜZERİNE	312

37.	<i>Orzigul HAMROYEVA.</i> QOFIYAGA OID BIRLIK LARNING QIYOSIY TAHLILI	325
38.	<i>Ainisa AKMATOVA, Makhlie NAZAROVA</i> THE SPECIFIC PECULIARITIES OF THE EMAGE "WOMAN" IN THE EPIC MANAS AND IN ALISHER NOVOIY'S WORKS	333
39.	<i>Тожи НОРОВ.</i> АЛИШЕР НАВОИЙ БОРЛИҚ ФАЛСАФАСИДА КОСМОС, МАКОН ВА ЗАМОН ТАЛҚИНИ	341
40.	<i>Rustam SHARIPOV.</i> MAHMUDHO'JA BENBUDIY VA ABDURAUF FITRATNING MILLIY DAVLATCHILIK HAQIDAGI QARASHLARI	353
41.	<i>Feruz BURXANOVA.</i> BADIY SO'Z JILOSI	370
42.	<i>Ольга ЧИЖИКОВА, Ирина ЯНОВСКАЯ.</i> ЧЕРТЫ КОСМИЗМА В СТИХОТВОРЕНИИ НИКОЛАЯ КЛЮЕВА "БЕЛАЯ ИНДИЯ" И В НЕКОТОРЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ВОСТОЧНЫХ АВТОРОВ	377
43.	<i>Komiljon HAMROYEV.</i> SHARQ NIHOYATLARINING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI	386
44.	<i>Нилуфар УМАРОВА.</i> ЎЛЖАС СУЛАЙМОНОВ ШЕЪРИЯТИ	393
45.	<i>Zebiniso BEKMURADOVA.</i> PAREMIYADA XIAZM	399
46.	<i>Азамат ХАЙРУЛЛАЕВ.</i> НОРМУРОД НОРҚОБИЛОВ ҲИКОЯЛАРИДА ОНОМАСТИКА	404
47.	<i>Салават АЮПОВ.</i> ОТЗВУКИ РУССКОЙ КЛАССИКИ В ЧЕХОВСКОМ ЭТЮДЕ "БЕЗНАДЕЖНЫЙ"	422
48.	<i>پوهنځار امرالله محمدی</i> بررسی زبان شناسانه استعاره مفهومی عشق در اشعار فارسی نوایی	429
49.	<i>Tozagul MATYOQUBOVA.</i> G'AFUR G'ULOM SHE'RIYATIDA LIRIK QAHRAMON VA KESHINMANING POETIK IFODASI	437
50.	<i>Ирина ЯНОВСКАЯ, Ольга ЧИЖИКОВА.</i> СКУЛЬПТУРНЫЕ ОБРАЗЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А.С.ПУШКИНА	445

Tozagul MATYOQUBOVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
(ToshDO'TAU, O'zbekiston)

G'AFUR G'ULOM SHE'RIYATIDA LIRIK QAHRAMON VA KECHINMANING POETIK IFODASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada akademik shoir G'afur G'ulomning she'rlari o'rganilgan. Unda shoirning she'rlaridagi lirik qahramon kechinmalari ong osti tuyg'ulari bilan bog'lab tadqiq etiladi. Bu esa bizga XX asrning murakkab yillarida yashab ijod qilgan G'G'ulomni inson va ijodkor sifatida tushunishimiz uchun muayyan darajada asos bo'la oladi.

Kalit so'zlar: Lirik qahramon, she'riyat, badiiy ifoda, ijodkor, ong osti, ijodiy prinsip, tuyg'u, o'zlikni anglash, motivatsiya.

Abstract: This article studies the poems of academic poet Gafur Ghulam. It examines the experiences of the lyrical hero in the poet's poems in connection with his subconscious feelings. This can serve as a basis for us to understand Ghulam, who lived and worked in the difficult years of the 20th century, as a person and a creator.

Keywords. Lyrical hero, poetry, artistic expression, creator, subconscious, creative principle, emotion, self-awareness, motivation

Lirik she'riyat "*subyektiv poeziya*" [Belinskiy V.1:134] bo'lish barobarida, shaxsiy kechinma va qarashlardan tashqari, muayyan shoir yashagan zamon ruhi va yetakchi tendensiyalarini ham ifoda etadi. She'rning lirik qahramoni ijodkor g'oyaviy-estetik ideali va badiiy mahorati bilan uzviy bog'liqdir.

G'G'ulom "*zamon jarchisi*"ga aylanishi shoirning o'z "*men*"ni "*omma*" sifatida tushunish dasturi bilan izohlanadi. Shoir uchun she'riyat hamisha ham ruh ne'mati emas, balki aksariyat hollarda tashviqot vositasidir. Shubhasiz, u inson erki va kamolini ulug'laydi. Biroq shoir tasavvuridagi inson yoki xalq keng ma'noda olib qaralsa, jahon proletariati – sotsialistik lager vakili, uning amalidir.

G'G'ulom ijodiy prinsiplarida umrining har onini davr mazmuniga hamnafas qilish, ya'ni: "*Zamonning mazmunini ishqiy vaznga solmak*" tamoyili yetakchilik qilgan [G'G'ulom. 7:288]. Shuning uchun shoir lirik merosining o'z davrida qaynoq va otashin bo'lib tuyulgan, ammo bugungi kunda zamonasozlik tufayli yaratilgani ayon ko'rinuvchi kattagina qismi vaqt sinovlariga bardosh berolmadi.

Shubhasiz, G'G'ulom noyob aql, kuchli lirik hissiyot sohibi sifatida hayotiy va ma'naviy-ruhiy tajribasi orqali o'z amaliy faoliyati qanday oqibatlarga olib kelishini qalban tuyib, ularni boshqarish qobiliyatiga ega edi. Shunga qaramasdan, shoir o'z hayotining har bir bosqichida ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni individual talqin qilish asnosida davrga moslasha bordi. Bu ijtimoiy adaptatsiya uning hayot va ijod yo'li uchun faol yo'nalish tanlashi hamda optimal yashovchanligini ta'minladi. Ammo shoir yoshi oltmishga yetganida o'z-o'zini taftish qilarkan: *"Ko'pincha haq yozdim, ba'zida ozdim"*, deya iqrar bo'ladi. Buning tabiiy, oilaviy-genetik va ijtimoiy-siyosiy sabablarini izohlashga shoirning o'zi kalit beradi:

Soch, soqol oqardi, munkayish, tishlar...

Bilunur ba'zida yashirin dard izi [G'G'ulom. 7: 314].

Ko'rinadiki, erta qarish tabiiy asoslar tufayligina sodir bo'lmagan. Chunki "yashirin dard" shoir qalbiga solgan chandiq izlari bundan aniq guvohlik beradi.

G'G'ulom ta'kidlagan "yashirin dard"lar haqidagi oshkora iqrar bizga uning ong osti fikrlari ong sferasiga ko'chgan holat – subyektiv borlig'idan xabar beradi. Bu subyektiv reallikda shoir ong ostining barcha ierarxik darajalari: sezgi, idrok, tasavvur, tushuncha, hukm, xulosa, gipoteza, konsepsiya mujassam. Bizningcha, ushbu unsurlarning barchasi muhim hissiy-ratsional informatsiya tashigani va shoir estetik idealini quvvatlantirgan.

G'G'ulom o'z-o'zini kuzatib borgan va faoliyatining motivatsiyasini anglagan. Biroq, shoir shuurini tashqi omillarga bog'liq ixtiyorsizlik va tafakkurining davr bilan shartlangani tizginlab turgan. Ammo, donishmand shoir "vulgar materializm"ning insonga yerda kechgan jarayonlar hosilasi (planetar hodisa) sifatida qarashdek cheklangan jihatlariga ergashmadi. Inson zotini koinot evolyutsiyasining tabiiy mahsuli – kosmik hodisa deb bildi. Tafakkur rivojini Quyosh tizimida million yillar davomida sodir bo'lgan o'zgarishlardan ajratib qaramadi.

"Insonning qatra qoni menga olamcha mazmun, Faqat o'zing buyuksan Quyosh sistemasida" kabi misralarda ham shoir insoniyat tarixini Quyosh tizimi bilan bog'lab talqin qiladi. U nafaqat yer yuzida, balki butun sayyoralar ichra insondan ulug'roq, buyukroq zot yo'qligini poetik jilolantiradi. Mazkur o'rinda *"insonning*

qatra qoni”, “*olamcha mazmun*” kabi ifoda vositalari orqali inson tabiati, hayoti, ruhiyati sir-sinoatga to’la ekanligiga ishoralar qiladi. Insonning buyukligini ulug’lash barobarida yashashning, tiriklikning u uchun berilgan buyuk ne’mat ekanligi poetik talqin etiladi, she’riyatga hayotbaxsh ruh olib kiriladi.

Natijada, G’G’ulom irodasi, ichki kechinmalarini oshkor etishga to’siq bo’lib kelgan barcha omillarni bartaraf etolgan:

Ba’zida kutilmagan bir dahshatdan so’ng

To’satdan keladi umrning kuzi [G’G’ulom. 7: 314].

E’tibor jihatida shundaki, shoir lirik qahramoni kutilmagan dahshatlar haqida bemalol so’zlayotir. Xolbuki, G’G’ulom yashagan zamonda hukmron mafkura tug’dirgan qo’rquv, xavf va vahima haddan oshishi haqida oshkora muhokama yuritib bo’lmas edi. Ayonki, bu o’rinda tabiiy ofatlar keltiruvchi dahshat nazarda tutilmagan. Bizningcha, shoirning yuragi ehtimol tutilgan mash’um bir dahshat vahmidan titragan:

Ba’zan farzand dog’i, qo’rquv va alam

Qalbingga cho’kirar og’ir iztirob [G’G’ulom. G’G’ulom. 7: 314].

Odatda, chidash imkonsiz bo’lgan kezlardagi ayanchli holat inson ko’nglida yuqoridagi kabi azob-iztirob hissini tug’diradi. O’sha ruhiy kayfiyat-holat g’oyatda mudhish ijtimoiy voqea-hodisa ta’sirida tug’ilgan bo’lishi ham ehtimoldan xoli emas. Unda farzand dog’idan tashqari, milliy adolat toptalgan, zolimning zulmi qarshisida ilojisiz qolgan qo’rquv va alamzadalikdan o’rtangan ko’ngilning o’tli tug’yoni aks etgan. Zotan, she’rda uzoq yillar davomida ko’nglida hasratlar to’planib, butun borlig’i abgor bo’lgan insonning giryasi o’z ifodasini topgan:

Qattol urushlar ham ochlik falokat

Qilolur vujuding xonasin xarob [G’G’ulom. 7: 314].

Nazarimizda, yuqoridagi misralar sho’ro tuzumi ustidan chiqarilgan kuchli aybnomadir. Chunki unda G’G’ulom o’z hayoti davomida boshidan o’tkazgan, bevosita guvohi bo’lgan: XX asrning 20-30-yillardagi ochlik va ommaviy qatag’on, ikkinchi jahon urushi fojialari, muttasil davom qilgan sinfiy kurash hamda adabiy siyosat oqibatlari, umuman o’tgan asrning 20-60-yillarida sodir etilgan barcha ijtimoiy-g’oyaviy fojialar ko’lamdor tarzda qalamga olgan.

Muhimi, G'G'ulom anglangan hodisalarga hissiy munosabat bildirgan va milliy manfaatlar asosida baholagan. Bu hol shoir hayotiy tajribasi davomida shu kabi haqiqatlarni qalban tasdiqlab, fikran rivojlantirib borganini ko'rsatadi. To'g'ri, u hamisha ham ijtimoiy ta'sirlarga qarshi hissiy reaksiya bildirgan olmagan. Keksalik yillariga kelib shoir o'z-o'ziga hisob berish va o'tgan umrini taftish qilish tuyg'usi kuchaygan. Obyektiv reallik shoir subyektiv dunyosida qayta ishlangan. Chunki inson ongi nafaqat voqelik obyektlariga, balki o'z-o'ziga munosabatni, o'zlikni anglashni ham qamrab oladi. Umuman, shoir umri vafo qilgan va salohiyati to'la namoyon bo'lishi uchun o'z davri imkon bergan darajada ijod qilgan.

Adabiyotshunos D.Quronov to'g'ri ta'kidlaganidek, *"Oniy kechinmani tasvirlovchi lirikaning badiiy vaqti hamisha – "hozir": u ayni hozir ko'ngilda kechayotgan his tuyg'ularni tasvirlaydi, she'r qachon yozilganidan qat'iy nazar, she'rxon uni hozir ko'ngilda kechayotgan tuyg'u kabi qabul qiladi"* [Quronov D. 4:153]. Bu fikrlar bevosita G'G'ulom she'riyatiga ham taalluqlidir.

Ona yurt tuprog'i bejiz otaday muqaddas, ona kabi mo'tabar sanalmaydi. U olis momo-yu bobolarimiz xoki turobi yotgan aziz maskan. Bugungi nasl ham shu qadrdon tuproqning milliarddan bir zarrasi. Ushbu fikr tasdig'i G'G'ulomning "Kulol va zargar" nomli she'rida yaqqol namoyon bo'ladi. She'r kulol oilasida tug'ilib Xalq shoiri darajasiga erishgan Mirmuhsin Mirsaidovga atalgan. G'G'ulom ota – kulolning baland e'tiqodiga tahsin o'qiydi. Chunki u bir changal jo'n loy – bir burda Vatandan umr bo'yi ko'z uzmay, unga ziynat ato etgan, oddiyligi bilan ulug'vorlik kasb etolgan mehnatkash inson. Ulug' shoir Xayyom sopol piyola va siniq ko'zada inson jismi uzvlarini ko'rgan edi. G'G'ulom esa, har tepalik ostida olis moziy asrori yashirin ekaniga diqqat qaratadi:

Bu tepa qaeru bu qaysi qo'rg'on,

Bu yerda kim yashab, kim obod qilgan.

Xalqi kimlar edi va qanday zamon

Qay umid o'rtagan, ne ijod qilgan? [G'G'ulom. 7: 296].

Tajhilu orif san'ati asosida yaratilgan ushbu baytlarda shoir olis moziy bag'rida mujassam sir-asrorlarga to'xtalib o'tish bilan birga xalqning obodonchilik ishlari, qalbidagi umid uchqunlariga ham ishoralar qilib o'tadi. She'r lirik qahramoni qalbidagi ona-Vatanga

muhabbat, xalqiga ehtirom tug'ulari o'ziga xos tarzda tarannum etilgan.

Shoirning sohir qalami milliy zamin tarixi, xalq taqdiriga hamnafas va uning istiqbolini kuylashga safarbar edi:

Menga qizim sovg'a qildi bejirim avtoruchka,

Bu qalamda o'z xalqimning baxtin yozaman faqat

[G.G'ulom. 7: 298].

Akademik B. Nazarov ta'kidlaganidek, G'afur G'ulom she'rlari qatiga "...reallikdan tashqari, orzu va ideal ham singishib ketgan" [Nazarov B. 3:55]. She'rning lirik qahramoni, avvalo, xalq orzu-istaklari, niyatlarini teran anglovchi va unga o'zini darddosh, qismatdosh deb biluvchi kishidir. Uning yer yuzini ko'rkam va butun insonlarga ona holidan ko'rishni, erkin inson yuzida nur, har bir xonadonda baxt-iqbol kulishini istashi umuminsoniyat orzusiga hamohangligi bilan qimmatlidir.

G.G'ulom xalq baxtini kompartiya ittifoqdosh respublikalarda o'tkazgan umumsiyosatdan butkul ajratishi imkonsiz edi. Shunga qaramasdan, uning qalbi botinida el ozod, yurt farovon, vatan tinch bo'ladigan hur zamonlar orzusi charx urgan. Shoir o'z fikrini *tamanni'* usulida, ya'ni orzu-istak izhori sifatida ifoda etgan. Ushbu usul orqali lirik qahramonning inson haq-huquqi haqidagi o'y-kechinma va his-tuyg'ulari botiniga o'z xalqi holining bayonini yashirishga erishgan.

Yonbag'ir misoli Urganch gilami,

Muttasil qizg'aldoq, muttasil lola.

Tepalar botirlar bazmidan so'ngra

To'nkarib qo'yilgan gulgun piyola [G.G'ulom. 7: 303].

G.G'ulom yuqoridagi fikrni ochiq ifodalay olmagan bois, majozlar orqali fikr yuritgan. Shuning uchun, muloqot kontekstiga "botirlar bazmi" va to'nkarib qo'yilgan "gulgun piyola" birikmalarini olib kirib, tepaliklar bag'rida ezgu umidlarining ro'yobi yo'lida lola rang qoni to'kilgan erk kurashchilari xoki yotganini "kosa tagida nimkosa" shaklida aks ettirgan. Shoirning har bir ko'klamdagi muttasillikni ta'kidlab ko'rsatishidan anglashiladiki, uning botiniga yashiringan sifatlashda e'zozlanayotgan botirlar ruhi oldidagi ehtirom lirik qahramon uchun mutlaqo o'tkinchi kayfiyat emas.

G.G'ulom XX asr 50-yillarning ikkinchi yarmida san'at va adabiyot

nafaqat xalqlar o'rtasidagi muhim kommunikatsiya vositasi, balki: *"Kishi ruhining oliy ifodasi"*, ya'ni ko'ngil ishi ekaninini ham baralla aytishga imkon topgan.

Shoir:

Men o'zbek shoiriman –

O'z xalqimning tiliman;

Qalbim buyurganini

Yozib keldim hamisha [G.G'ulom. 6: 40].

deya mo'jaz iqrornoma bitgandi. Bunda G.G'ulom adolat tantanasi yo'lida qalbi amriga zid bormagani, o'z xalqi dilidagi ozodlik sog'inchini ifoda etuvchi shoir ekanidan mamnuniyat tuygan.

Sir emaski, G.G'ulom inson toqati zamirida bir kuni guvillab otilajak vulqon qudrati yashirinligini ulug'vor poetik ohanglarda kuylagan. Bu hol shoir estetik pozitsiyasining bir qirrasi – illyuziya hosil qiluvchi zohiriy qatlami. Darhaqiqat, G.G'ulom she'riyati aksariyat hollarda ikki *"qavatli"*. Shoir lirik merosidagi zohiriy qatlam orqali zamonga, tuzumga sadoqat ifodalanadi. Shu bois, ko'tarinki pafos birdaniga zamondoshimizga *"yuqmaydi"*. Ammo, insoniyat zulm va zo'rlik, qullik va haqorat zanjirlaridan xalos bo'lishiga nekin ishonch bilan qaragan G.G'ulom odam bolasining tafakkur kuchi, idroki uzluksiz zulmatda o'rtanishga toqat qilolmasligini teran bilgan. Insoniyat tarixida aql-idrok har qanday istibdod quyuni, zulm to'foni, jahongirlik shamshiridan ustun bo'lib kelganidan tegishli xulosalar chiqara olganidan ko'z yumib bo'lmaydi [Matyoqubova T. 2: 87].

Shoirning quyidagi misralarida jahon voqeligi asosida shaxsiylashgan kechinmalar milliy adabiy-estetik xotiraga tayangan holda poetik idrok etilgan:

Buzg'un, och-yetimlik, xarob xonumon

Cho'loq chumolilar uyasi, urush... [G.G'ulom. 7: 240].

She'r lirik qahramoni ijtimoiy-psixologik kayfiyat-holati mantiqiy izohi muallif shaxsiy hayoti, kuzatish-tajribalari, ruhiyatidan kelib chiqadi. She'rda shoir poetik tafakkuri olamgirlik maqsadidagi urush va istilolar zamirida buzg'unchilik, yetim-yesirlarni zor qaqshatish, odamlar xonumonini xarob qilishdek ulkan mantiqsizlik mavjudligini anglagani – *"cho'loq chumolilar"*, ya'ni qo'l-oyog'i emas, balki aqli noqis – tafakkuri oqsovchi kimsalarni inkor

etganini ko'rsatadi. G'G'ulom o'zligini anglab, moddiy dunyodan haq va haqiqat izlagan muazzam Sharqning Xitoy, Vetnam, Koreya; jahonning Ruminiya, Bolgariya, Chexoslovakiya, Polsha singari ko'plab mamlakatlarida erkka talpinish istagidagi insonlarga o'zini hamdam, hamnafas sezadi.

Ko'rinadiki, shoir qalbi dunyoning qaysi burjida ekani, hatto millat-u irqidan qat'iy nazar, necha asrlardan beri zulm va zulmat iskanjasida dili hasratga to'lgan butun jahonni sig'dira olgan. Chunki shoir umumiy o'zaro tortishish kuchi bilan bog'langan hamda Quyoshni ham o'z ichiga olgan ikki yuz milliarddan ortiq yulduzlarning ulkan gravitatsion sistemasi – Galaktika miqyosida fikrlaydi. Shunday ekan, shoir tafakkur olamini o'z davri va muhiti bilangina chegaralash G'G'ulomni INSON va IJODKOR sifatida fenomenal tushunishdan yiroqlashishdir.

Adabiyotlar

1. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. O'zdnashr. – T., 1955. – B. 347.
2. Matyoqubova T. G'afur G'ulom badiiyati. – T.: Fan va texnologiya, 2006. – B.160
3. Nazarov B. G'afur G'ulom olami. – T.: Fan, 2004. – B.240.
4. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2010. – B. 397.
5. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.1. – T.: Fan, 1983. – B. 326.
6. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.2. – T.: Fan, 1984. – B. 430.
7. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.3. – T.: Fan, 1984. – B. 427.
8. Matyoqubova T. G'afur G'ulom badiiyati. – T.: Fan va texnologiya, 2006.
9. Matyokubova T. & Yakubov I. Laboratory works of Gafur Gulam: poetic image and imagery. Journal of critical reviews. 2020, № 7, pp. 28-37.
10. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical &Applied Science. – Marseille, 2015. pp. 40-43.

11. Matyokubova T. Poetic imagery of nature // Theoretical & Applied Science, 2023. 02 (118). Pp. 521-524.
12. Matyoqubova T. G 'afur G 'ulom she'riyatining poetik jozibasi (Shoirning "Kuzatish" va "Sog 'inish" she'rlari tahlili misolida).
13. Islomjon Yakubov. Transformation of aesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. 2017. №12. 120-125.
14. Yakubov I. Socio-Genetic Factors Of Changes In The Character Of The Main Character. Texas Journal of Medical Science. 2024. Vol 29. Pp. 123-125.
15. Yoqubov I. Erkin A'zamning "Zabarjad" kinoqissasida qahramon botinidagi evrilishlar tasviri // Uzbekistan: yozuk i kultura. 2024. № 2. – B. 66-77.
16. Yokubova S.I. Jadid she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar tasviri // O'zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent, 2022, № 3. – B. 42-54.
17. Yokubova S.I. Jadid she'riyatida ramzlar: semiotik va germeneytik talqin // O'zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent, 2023, № 3. – B. 79-90.